| | |
|---|---|
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>A.Tilavov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "O'zbek adabiyoti tarixi va folklor" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (turdosh OTM);<br>V.S.Yelok - Anqara Hoji Bayram Vali universiteti (Turkiya), "Zamonaviy turkiy tilllar va adabiyoti" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (turdosh OTM). |



11

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
G.Sh.Rixsiyeva
________________
202 0 yil "28 08"

**"KELISHILDI"**
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
________________
202 0 yil "29" 08

Ro'yxatga olindi: № MD-5A120101
202 0 yil "29 08"

**MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI (TURK)**

**FAN DASTURI**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 - Gumanitar soha |
| **Ta'lim sohasi:** | 120000 - Gumanitar fanlar |
| **Mutaxassislik:** | 5A120101 - Adabiyotshunoslik (sharq tillari) |

**Toshkent – 2020**

<table>
<tr><td></td><td>maqola va tadqiqotlar (Mas'ul muharrir B.Qosimov). –T.: "Ma'naviyat". 2006.<br>2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: "O'qituvchi" nashriyoti. 1980.<br>3. Quronov D., Mamajonov Z., SHeralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr. 2010.<br>4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr. 2018.<br>5. Karataş T. Ansiklopedik Edebiyat Terimleri Sözlüğü. Sütun Yayınları, İzmir-2014.<br>6. Kaplan M. Hikaye Tahlilleri. Dergah Yay. İstanbul-2009. (14.baskı).<br><br>Qo'shimcha adabiyotlar:<br>7. Mirziyoyev SH.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" – T., "O'zbekiston" – 2017.<br>8. Yelo'q V.S., Kenjayeva P. Kutilmagan mehmon (turk hikoyalari tarjimasi). T.: Akademnashr, 2011.<br>9. Kenjayeva P. Binafsha (turk hikoyalari tarjimasi). -T.: Mumtoz so'z, 2015.<br>10.Yeni Türk Edebiyatı. (1839-2000). Edit. Ramazan Korkmaz. Grafiker Yayınları, Ankara-2015.<br>11. Aristotel. Poetika (Poeziya san'atlari haqida).-T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.<br><br>Axborot manbalari:<br>1. http://sbe.gazi.edu.tr/<br>2. http://www.sosyalbilimler.hacettepe.edu.tr/<br>3. http://tde.deu.edu.tr/<br>4. http://sosyalbilimler.istanbul.edu.tr/<br>5. http://www.sosbilen.ege.edu.tr/<br>6. http://www.turkishlanguage.org<br>7. http://www.tashgiv.uz/</td></tr>
<tr><td>7</td><td>Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "29" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br><br>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "19" 08 dagi 452 - sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.</td></tr>
<tr><td>8</td><td>Fan/modul uchun ma'sul:<br>P.Kenjayeva – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, "Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | 10. Turk folklorida janrlar masalasi<br>11. She'riy nutq – lirik turning shakli sifatida<br>12. Turk shoirlari ijodida aruz nazariyasi<br>13. Turk shoirlari ijodida barmoq vazni<br>14. Turk adabiyotida postmodernizmning ko'rinishlari<br>15. Adabiyotning in'ikoschilik xususiyati haqida turk olimlari va yozuvchilari fikri<br>16. Yozuvchi ijodining pafosi va badiiy asar<br>17. Badiiy adabiyotning ichki tuzilishi<br>18. Turk adabiyotida xalqchillik masalasi<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3 | **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• adabiyotshunoslik masalalari bilan tanishtirish, ularni badiiy asar bilan ishlashga, undagi nazariy masalalar haqidagi **tasavvurga ega bo'lishi;**<br>• mamlakat adabiyotshunosligining dolzarb nazariy masalalarini ajrata olishga, tadqiq va tahlil etishni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**<br>• badiiy asar tuzilishi, uning shakl va mazmun tomonlari, badiiy asar sujeti, kompozisiyasi, badiiy til, inson obrazini yaratish yo'llari va vositalari, adabiy jarayon, badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, adabiy tur va janrlar, uslub va metod tushunchalari, badiiy adabiyotdagi turli oqim va yo'nalishlar bo'yicha yechimlar qabul qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.** |
| 4 | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6 | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Fitrat A. Tanlangan asarlar: IV jild. Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy |



| Fan/modul kodi<br>5AANM125 | O'quv yili<br>2020-2021 | Semestr<br>1 | ECTS - Kreditlar<br>5 | |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | **Ta'lim tili**<br>O'zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 | |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **Mutaxassislikning nazariy masalalari** | 60 | 90 | 150 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan **maqsad** – magistrlarga o'rganilayotgan mamkatlar adabiyoti (turk)ning nazariy masalalari "Adabiyotshunoslikka kirish", "Adabiyot nazariyasi", "O'rganilayotgan mamlakat adabiyoti (turk)", "G'arb adabiyoti tarixi" fanlarida o'rganilayotgan milliy badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanish qonuniyatlari va xarakteri, metodlari, janrlar, poetikani tashkil qiladigan asarning badiiy tili, uslubi, turli badiiy – tasviriy va ifodaviy vositalari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – mazkur fan magistrlarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, adabiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Nazariy maktablarning shakllanishi**

Mutaxassislikning muhim nazariy masalalari va ularni yechishning ilmiy-amaliy yo'llari; manbani o'rganishning ilmiy metodlari.

**2-mavzu. Badiiy adabiyotning spesifik xususiyati**

Mutaxassislik sohasidagi ilmiy qarashlar; hozirgi zamon jahon adabiyotshunosligiga turli nazariy qarashlar; hozirgi zamon adabiyotshunosligining yetakchi konsepsiyalari; adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari (tarix, paleografiya, numizmatika, epigrafika va boshqalar);

**3-mavzu. Badiiy adabiyotda milliylik va umuminsoniylik**

Mamlakat adabiyotshunosligining rivojlanish bosqichlari; o'rganilayotgan mamlakat adabiyotshunosligining nazariy asoslari; mamlakat adabiyotshunosligida adabiy an'analar va adabiy tanqidning shakllanish davri va uning bugungi kun muammolari; badiiy adabiyotning shakllanish omillari;

**4-mavzu. Adabiyotshunoslikning asosiy metodlari**

Badiiy adabiyotning estetik vazifalari va uning real xayot bilan bog'liklik

masalalari; mamlakat adabiyotshunosligi rivojiga hissa qo'shgan adabiyotshunos olimlar; o'rganilayotgan mamlakat adabiyotidagi adabiy maktab va yo'nalishlar; alohida olingan adabiy jarayonlarni tanqidiy o'rganish va ularni bir-biridan ajratish;turli davr adabiy meroslaridagi janr va uslub xilma xilligi masalalari;

**5-mavzu. Badiiy adabiyotning ichki tuzilishi**

Mumtoz va yangi davr adabiyotida shakllangan nasriy va nazmiy janrlar; adabiy janr va uslublar doirasida shakllangan muammoli masalalar; yozuvchi ijodida obrazlilik masalasi; taniqli adabiyotshunos olim va adabiy tanqid maktablari vakillarining nazariy qarashlarini o'rganish; o'rganilayotgan mamlakat adabiyotshunosligiga oid mamlakatda va xorijda amalga oshirilgan nazariy va ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil qilish; yozma adabiy manbalar bilan ishlash;

**6-mavzu. Ijodiy metod va yo'nalishlar**

Nazariy materiallar asosida o'rganilayotgan adabiyotshunosligiga oid ma'lumotlarni tasnif qilish; mamlakat adabiyotining muammoli masalalarini aniqlay olish; badiiy ijodga mutaxassis sifatida yondoshish va adabiy jarayonlarni "harakatdagi estetika" tushunchasi ostida o'rganish va tahlil qilish;

## III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

***((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg'ulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim)** o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)*

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Badiiy adabiyotning ichki tuzilishi (turk adabiyoti misolida)
2. Turk adabiyotshunosligida adabiy turlar va janrlar
3. Badiiy adabiyotda an'ana va novatorlik (turk adabiyoti asosida)
4. Turk yozuvchilari ijodida obraz yaratish mahorati (S.Ali, R.N.Guntekin va b.)
5. Turk adabiyotida zamonaviylik va yozuvchining ijtimoiy axloqiy qiyofasi
6. Badiiy adabiyotda mazmun va shakl birligi
7. Badiiy adabiyotda tipiklashtirish (turk adabiyoti misolida)
8. Badiiy adabiyotda ijodkor uslubi
9. Hozirgi adabiyotshunoslikning asosiy metodlari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.



## IV. Kurs ishi bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun quyidagi taxminiy mavzular tavsiya etiladi:

1. Mumtoz davr sharq xalqlari adabiyotida nasriy janrlarning o'ziga xosligi
2. Mumtoz davr sharq xalqlari adabiyotida nazmiy janrlarning o'ziga xosligi
3. Zamonaviy davr sharq xalqlari adabiyotida nasriy janrlarning o'ziga xosligi
4. Zamonaviy davr sharq xalqlari adabiyotida nazmiy janrlarning o'ziga xosligi
5. Sharq xalqlari adabiyotida badiiy asar talqini va tanqidi
6. XX asr boshi sharq xalqlari adabiyotiga G'arb madaniyatining ta'siri masalalari
7. XX asr boshi sharq xalqlari adabiyotida adabiy jarayonlar
8. Sharq xalqlari adabiyotida badiiy asarni biografik, psixologik, immanent va struktural tahlil qilish jarayonlari
9. Sharq xalqlari adabiyotida muttasil rivojlanayotgan janr –romanchilik
10. Sharq xalqlari adabiyotida mustamlakachilikka qarshi kurash va istiqlol masalalarining yoritilishi

## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Adabiyot va zamonaviylik
2. San'atkor uslubi
3. Turk adabiyotshunosligida adabiy tanqid
4. Turk yozuvchilari ijodida milliylik va umuminsoniylik (S.F.Abasiyoniq, M.Esendal va b.)
5. Uslubiy o'ziga xoslik (turk ijodkorlari misolida)
6. Zamonaviy turk yozuvchilari ijodining o'ziga xos individualligi (S.Chokum, Firuzan ijodi)
7. Zamonaviy turk yozuvchilari ijodida realizm
8. Zamonaviy turk shoirlari ijodida modernizm
9. Folklor va folklorshunoslik